

**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA  
INNOVATSION TA'LIMDAN FOYDALANISH BO'YICHA METODIK  
TAVSIYALAR**

*Allaberdiyev Orif Bahodir o'g'li*

*Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani*

*14-umumiy o'rta ta'lim maktab informatika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu metodik tavsiyada informatika va axborot texnologiyalari fanida innovatsion ta'limdan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** informatika, axborot texnologiyalari, innovatsiya, metodlar, AKT.

O'qituvchilik kasbi ham mashaqqatli, ham sahovatli bo'lgan o'ziga xos bir olamdur. O'qituvchilar shunday insonlarki, ularning yonlarida har doim o'quvchilar, ota-onalar jamoasi hamohang nafas oladi. U nafaqat ta'lim beradi, balki, shogirdlarini yomonliklardan ogoh etadi, asraydi. Ma'naviyatli va ma'rifatli jamiyatlar uchun axloqiy tamoyillar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan kelib chiqadi va o'z fikrini erkin bildirish huquqini, axborotning hammaga ochiq bo'lishini, xususan, jamoatchilikka tegishli ma'lumotni, ta'lim olish, maxfiylik va jamiyatning madaniy hayotida ishtirok etish huquqini o'z ichiga oladi. Axborot etikasi (infoetika) bo'yicha xalqaro munozaralar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llashning axloqiy, huquqiy va ijtimoiy jihatlariga taalluqlidir. AKTning jadal rivojlanishi bilan bog'liq o'zgarishlar nafaqat insoniyat uchun ulkan imkoniyatlarni ochib beradi, balki yangi axloqiy muammolarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu borada XXI asrning asosiy muammolaridan biri axborot jamiyatining inson huquqlarini o'zaro hurmat qilish va hurmat qilish tamoyillariga asoslanganligini ta'minlashdir. Raqamli texnologiya, raqamli aloqaning keng tarqalishi ko'p afzalliklarga ega, biroq u suiiste'mollik va huquqlarning buzilishi xavfini tug'diradi. Shu sababli informatika darslarida AKTdan foydalanishning axloqiy oqibatlarini bilan shug'ullanish uchun yana

ko'p ishlarni bajarish kerak. Bugungi kunda o'quvchilarda yangi bilimlarni mustaqil izlab topish, ularni egallash, zarur axborotlarni to'plash, farazlarni ilgari surish, muayyan fikrga kelish, yakuniy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradigan usullardan foydalanish aktual hisoblanadi. Informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishni mujassamlangan holdagi ko'rinishidir. Informatika va axborot texnologiyalari fanida innovatsion ta'limdan quyidagi usullardan foydalanish mumkin.



«Xotiraga murojaat» usuli. Bu usulni quyidagicha qo'llash mumkin.

1. Kompyuter grafikalarining qaysi turlarini bilasiz? Javob: rasterli va vektorli
2. Rasterli grafiklardagi tasvirning minimal qismi deyiladi ...Javob: piksel
3. Rasmni chizgan ekranning qismi nima deb ataladi?Javob: Ishchi maydoni
4. Bu narsani restoranda ovqatni buyurtma qilish uchun mijozga beriladi va u grafik muharririda ham bor u nima? Javob: Meny

**“Yalpi fikriy hujum” usuli.** Bu usul orqali nazariy bilimlar o'rganiladi. Axborotlar bilan olib boriladigan faoliyatga axborotli jarayonlar deyiladi. Axborotlarni qabul qilish, uzatish, saqlash, qayta ishlash kabi jarayonlar bir-biridan

farq qiladi. Kompyuterda amallar axborotli jarayonlar orqali bajariladi. Kiritish qurilmalari axborotni signal yoki ikkilik kodga, chiqarish qurilmalari esa signal yoki ikkilik koddagi axborotni qabul qilishga tayyor axborotga o'tkazib beradi.

**“Rekord” usuli.** Bu usulni qo‘llash orqali dars jarayonida o‘tilayotgan, mavzu bo‘yicha rekord darajadagi noyob ma‘lumotlarni juda ko‘p miqdorda berish nazarda tutiladi. Bunda qaysi o‘quvchi mavzu bo‘yicha ko‘p ma‘lumotga ega bo‘lsa, shu o‘quvchi rekord natijaga erishadi.



Xulosa qilib aytganda, ilgari o‘quv jarayonida o‘quvchilarga emas, balki o‘qituvchining roliga ko‘proq e‘tibor berilar edi. Albatta, o‘qituvchi ham juda muhim, ammo tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, agar o‘quvchilarga yangi materialni mashq qilish va amalda qo‘llab ko‘rishga imkoniyat berilsa ular samarali muloqot qilishni ko‘proq o‘rganadilar. Shunday qilib, darslarda ishlatilgan o‘quvchiga yo‘naltirilgan uslubning maqsadi o‘quvchini sinfxonada sodir bo‘ladigan ko‘p narsalarning diqqat markaziga qo‘yishdir. Shu sababli guruhlarda ishlash orqali yangi tilni tabiiy qo‘llashga o‘quvchilarni ruhlantiradigan ko‘pdan-ko‘p mashqlar, bahslar, ijodiy ishlar va o‘yinlarni o‘z ichiga oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pedagogika. O‘quv-qo‘llanma. T.: O‘zR FA “Fan”. 2006.
2. Azizxo‘jaeva N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. T, 2000-yil.
3. Internet saytlari. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com), -ZiyoNet .uz, - kitob.uz, - multimediya .uz